

O'RTA ASRLAR ME'MORIY YODGORLIKARIDA RANG VA BO'YOQLARNING QO'LLANILISHI TAMOYILLARI



Zuxra Shavkatovna Dosmetova

Professor

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti

zukhradosmetova@gmail.com

Durdona A'zamova

Doktorant

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti

erkinovadurdona93@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-06-09>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rtalarda me'moriy yodgorliklarda qo'llanilgan rang bo'yoqlari va pigmentlar tarixi, xususiyatlari haqida yoritilgan. Ranglar qo'llanilishiga doir asosiy tamoyillar keltirib o'tilgan. Me'moriy yodgorliklarda bo'yoqlarni bezaklarda foydalanishning ijtimoiy-siyosiy, diniy, estetik ma'nolariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: uslub, devoriy freska, vitraj, naqsh, bezak, pigment, oxra, malaxit, kinovar, lazurit, rangli plitkalar, koshinli qoplamlar (mozaika, mayolika), funksionallik, estetik.

Аннотация: В статье рассматриваются история и свойства красителей и пигментов, применявшимися в архитектурных памятниках в средние века. Представлены основные принципы использования цветов. Рассматриваются социально-политические, религиозные и эстетические смыслы использования красок в декорировании памятников архитектуры.

Ключевые слова: стиль, настенная фреска, витраж, орнамент, декор, пигмент, охра, малахит, киноварь, лазурит, цветной изразцы, глазурованные покрытия (мозаика, майолика), функциональность, эстетика.

Abstract: This article discusses the history and properties of dyes and pigments used in architectural monuments in the Middle Ages. The basic principles of the use of dyes are presented. The socio-political, religious, and aesthetic meanings of the use of dyes in decorations in architectural monuments are discussed.

Keywords: style, wall fresco, stained glass, ornament, dekor, pigment, ocher, malachite, cinnabar, lazurite, colored brick, ceramic coatings (mosaic, majolica), functional, aesthetic.

O'rta asrlar, ya'ni V-XVI asrlar davri, Yevropada va boshqa hududlarda me'morlik va san'atda yangi uslub va yondashuvlarning paydo bo'lgan davridir. Ushbu davrda bo'yoqlar nafaqat bezak vositasi, balki diniy va madaniy jihatdan muhim rol o'ynagan. Me'moriy yodgorliklarda bo'yoqlarni ishlatish, ularda shakllanadigan tasvirlar va ranglar odatda diniy, ijtimoiy va siyosiy ma'nolarni anglatgan.

O'rta asrlarda bo'yoqlarni ishlatish odatda diniy yodgorliklarda, ayniqsa ibodatxonalar va monastirlarda keng tarqalgan. Bu davrda bo'yoq ranglari nafaqat estetik maqsadga, balki ruhiy, ma'naviy va ilohiy ma'nolarga ham xizmat qilgan. Rim-katolik ibodatxonalarida ranglarning ramziy ma'nosи niroyatda katta bo'lgan. Masalan, tillo rang Iloh va diniy muqaddaslikni ifodalaydi, ko'k rang esa cheksiz osmon, mo'jiza va ilohiy nurni tasvirlashda ishlatilgan. Bu ranglar devoriy freskalar, vitrajlar, tillo naqshlar va boshqa bezaklarda qo'llanilgan[1]

Metodlar. Germaniya, Fransiya va Italiyadagi gotika uslubidagi ibodatxonalarda bo'yoqlar qo'llanilishining yangi bosqichi boshlanadi. Bunday ibodatxonalar uchun maxsus bo'yoqlar ishlab chiqilgan va ular ibodatxonaning ichki ko'lamida ko'plab tasvirlar va muqaddas

sahnalarini ifodalashda ishlatalishda. Buning yordamida, ibodatxonalar odamlarga diniy ta'limgar berishda, ilohiy mavzularni tushuntirishda va Xudoning shon-sharafini ulug'lashda katta yordam bergan. Bo'yoqlar, shuningdek, iymoni jamoani ilohiy rivoyatlar va tasviriy sahnalar orqali birlashtirgan [2]. O'rta asrlar me'moriy yodgorliklarida bo'yoqlarning qo'llanilishi ancha keng bo'lgan. Ayniqsa gotika me'morchiligi o'zining bezaklari va bo'yoq ranglari bilan mashhurdir. Gotika davrida me'moriy yodgorliklarning ichki bezaklari, devoriy freskalar, vitrajlar va ikkita qatlamlili sgrafito rangli naqshlar bilan bezatilgan edi. Gotika ibodatxonalarida devoriy freskalar nafaqat bezak, balki diniy ta'limgar va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ishlataligan [3]. Fransiyaning Parij shahridagi Notre-Dame de Paris katedral ehromi, masalan, ajoyib vitrajli oynalari bilan mashhurdir. Bu vitrajlar nafaqat ibodatxonaning tashqi ko'rinishini go'zallashtirgan, balki diniy voqealar, asosiysi Iso Masihning hayoti, faoliyatini va qurbanligi haqida hikoya qilgan. Vitrajlardagi ranglar Xudoning nurini aks ettirgan va ibodat qiluvchilarga diniy o'gitlar bergan. Notre-Dame katedral ehromining vitraj oynalarida ko'pincha ko'k, qizil va yashil ranglar qo'llanilgan, bu ranglar nafaqat estahloq maqsadga, balki diniy ramz sifatida ham xizmat qilgan[4].

Germaniyada gotika uslubida qurilgan Kölner Dom (Kyoln ehromi) kabi boshqa yodgorliklarda ham ranglar muhim rol o'ynagan. Bu katedral ehromidagi freskalar, vitrajlar va devoriy bo'yoqlar o'rta asrlar san'atining eng yorqin namunalaridan hisoblanadi. Kyoln ehromining ichki intereridagi ranglar muqaddas tasvirlar, masalan, Iso Masihning hayoti va muqaddas shahslarning tasvirlari orqali diniy ta'limgar etkazgan. Ushbu katedral ehromida ishlataligan ranglar nafaqat go'zallikni ta'minlagan, balki xristianlikning asosiy tushunchalarini aks ettirgan [5].

Natijalar. O'rta asrlarda me'moriy yodgorliklarni bezashda ishlataligan bo'yoqlar asosan tabiiy pigmentlardan iborat bo'lgan. Oxra-oxra (qizil va sariq), malaxit (yashil), lapis lazuli (ko'k), kinnabar-kinovar (qizil) va vermilyon (qizil) kabi mineral pigmentlar ishlataligan [6]. Bu pigmentlar tabiiy materiallardan olinib, aralashmalarga qo'shilgan. Ba'zan bo'yoqlar mum, yog' va suv bilan aralashtirilgan va devorlarga, ustunlarga va boshqa bezaklar satxlariga surtilgan. Tillo leaf (zar varaq/susalnoe zoloto) ham keng qo'llangan materiallardan bo'lib, ko'plab yodgorliklarda, ayniqsa, muqaddas tasvirlar va ikonalarda ishlataligan [7].

Qadimgi va o'rta asrlarda davrlarda qo'llanilgan bo'yoq (pigment) turlari tahlili

Nº	Bo'yoq (pigment) nomlanishi	Rang tusi	Rang beruvchi asosiy kimyoviy elementi	Ilmiy nomi	Kashf qilingan davr	Ko'rinishi
1	Oxra	Sariq Qizg'ish Qizil Jigarrang Ba'zan, ko'k binafsharang,	Fe2O3 Temir oksidi	Oxra Umbra Siena	43 900 yil oldin	
2	Kinovar	qizil	HgS- simobning asosiy minerali	Kinovar kinobar	Miloddan avvalgi 5000 yil	

3	Oq rangli	oq	Karbonat jinslari kuydirilishi	Ohaktosh, bo'r	Miloddan avvalgi 3000-2500 yil		
4	Qora rangli	qora	ko'mir	Tosh ko'mir	250 mln yil oldin		
5	Lazurit	Ultramarin binafsharang	Natriyli marmar kondan olinadigan mineral yoki ingichka kristall	Lapis lazuline	Miloddan avvalgi 4000 yil		
6	Misr ko'ki	ko'k			Miloddan avvalgi 3000 yil		

Vitrajlardagi ranglar turli ko'plab materiallardan tayyorlangan. O'rta asrlarda vitraj oynalari uchun ishlatilgan ranglar o'ta murakkab va ko'p qatlamlari bo'lgan. Rangli shishalar qizil, yashil, ko'k va sariq ranglardan bilan bo'yalgan va quyosh nuri bilan uyg'unlashib, ehromlarning ichki ko'lamini yanada jozibadotligini oshirgan. Vitrajlar o'rta asrlarning diniy san'ati va me'morchilikda muhim rol o'ynagan, ularning ranglari esa ma'naviy rivoyatlar va saxna tasvirlarni aks ettirgan [8].

O'rta Osiyoning O'rta asrlarda mahobatli arxitekturaning va ularning bezaklari rivojlanishi va keng qo'llanilishi, hamda ushbu bezak va rasmlar exteryer va interyerlar devorlarida aks ettirilgan; Ular devorlar sathlaridan qabrlarida ham ifodasini topdilar. bu rasmlar evropada freskalar deb ataladi. Yaqin Sharqda devoriy rasmlari alsekkoga yaqinlashdi (quruq gil gips yoki yupqa alebastr qatlamiga elim qo'shib tempera bilan bo'yash). O'rta Osiyo rasmlari sahna tassvirlari (tematik) yoki bezakli bo'lgan. Muayyan tarixiy davrlarda devor rasmlari bezak bilan to'yingan, keyin esa yo'qolgan va bezak to'liq hukmronlik qilgan [9].

O'rta Osiyo IV-XIV-asrlarda turli xalqlarning yashash joyi bo'lgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab joylashgan vohalarda toxarlar, sug'dlar, turklar, hindlar, eronlar, uyg'urlar, mo'g'ullar, xitoylar yashagan. Qadimgi Xitoy tarixiy yilnomalarida bu hududni G'arbiy o'lka deb atashgan. U hind falsafiy va diniy ta'limotlariga, birinchi navbatda, buddizmga asoslangan umumiy tarix, madaniyat va ma'naviyat birligi bilan ajralib turardi. Savdogar karvonlari Buyuk Ipak yo'li bo'ylab ikki yo'nalishda: sharqdan g'arba va g'arbdan sharqqa qarab yurgan. G'arbdan Hindiston, Gandxara va Kashmirdan buddizm targ'ibotchilari, sharqdan- Xitoydan ibodatchilar xavfli sayohatga chiqib, nafaqat buddalarga sig'inish, balki sutralar, muqaddas buddist matnlarni ham olishga intilishdi. Buddizmdan tashqari, So'g'diyona, Xorazm va Parfiya va qisman Baqtriyada qadimiy eronlik zardushtiylik diniga asoslangan mahalliy kultlar asosiy rol o'ynagan [10].

O‘zbekiston hududidagi rangli qoishinlar me’morchiligidagi diniy va madaniy o‘ziga xos ma’nolarni ifodalashda muhim rol o‘ynadi. Islomdan keyingi davrlarda rangli qoishinlar asosan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa diniy obidalarda ishlatilgan. Rangli qoishinlarning uch (to’q siyohrang, firuza va oq) rangda qo‘llanilishi, ular ko‘pincha diniy ma’nolardagi (quroni Karim va hadis oyatlaridan olingan yozuvlardan tashkil topgan Ollohu Akbar, Ollohu yagona) hattotlikni uslublashtirib turli xil rompozitsiyalardan nuzilgan btzak namunalarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ranglar ma’lum ma’noga ega bo‘lgan, masalan, yashil rang- jannatning ramzi, qizil va sariq ranglar esa, Qur’ondagi yorqin tasvirlarga mos keltirilgan. XIV-XVI asrlarda Samarqand va Buxoro mahobatli yodgorliklari (masjid, madrasa, saroy) exteryerlarida rangli qoshin g‘ishtlar ishlatilgan bo‘lib, bu me’moriy asarlarning go‘zalligi va ma’nosini ranglarning haqiqiy mazmunini yanada ochib beradi [11]. Misol tariqasida Samarqandda Registon ansamblidagi me’moriy obidalar, Buxoroda Poi Kalondagi ko‘pgina yodgorliklar keltirish mumkin, Masjidi Kalon jom’e masjidi sifatida IX asrdan mavjud poydevor ustiga qaytadan qurilgan bo‘lib tomonlari 127x 78 m dan iborat. Mexrob, gumbaz ustivori maqsura va kirish peshtoqlarida koshinkorlik, koshinburush va parchin ishlangan. Hovli va dargoh tarzlarida silliqlangan pishiq g‘isht oralariga ko‘k, moviy, oq rangli koshinlar qo‘shib terilgan[12] Tematik manzara tasviri namunalari hozirgi kungacha juda yomon holatda. Samarqanddagagi uchta: Shirinbika-oko (1385), Bibi-xonim (1404) va Tuman-oko (1405) maqbaralarida saqlanib qolgan. Shirinbika-oko maqbarasida rasm zo‘rg‘a ko‘rinib turadi-bu yerda siz aylanib yurgan soyning konturini, butalar va shoxlari yoyilgan daraxtlarni ko‘rishingiz mumkin.

Amir Temurning Zamondoshi va guvohi Ibn Arabshohning xabar berishicha, Temur qurban Samarqand saroylari devorlarida uning ziyofatlari-majlislari, podshohning o‘z portretlari-goh qattiq, goh jilmayib turgani-janglari va shaharlarni qamal qilgani, uning suratlari tasvirlangan. sultonlar, hukmdorlar, amirlar, zodagonlar, olimlarning ziyofatlari, sovg‘a-salomlar sahnalari, Temurning ov o‘yin-kulgilar, Eron, Deshti-Qipchoq, Hindistondagi janglari, g‘alabali yurishlari va dushmanlarning parvozi, o‘g‘illari va nabiralarining portretlari, harbiy boshliqlar va qo‘riqchilar, omaviy bayramlar va samimiy ziyofatlar, o‘yin va qo‘shiqlar bilan uning qulog‘ini quvontiradigan musiqachilar va qo‘shiqlchilar, uning sevgi munosabatlari, kanizaklari va malikalari. Ba’zan imperiyada sodir bo‘lgan voqealar butun bir qator rasmlar shaklida taqdim etilgan. “Uning niyati, - deb tushuntiradi tarixchi, - uning qahramonliklarini bilmaganlar ularni ko‘rishlari uchun edi” [13]

O‘rta asrlar O‘zbekiston hududi, o‘sha davrda O‘rta Osiyoda joylashgan ko‘plab madaniy va diniy markazlarga ega bo‘lib, bu yerda qurilgan me’moriy yodgorliklar va ularning bezaklari nafaqat estetik jihatdan, balki madaniy, diniy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan.

O‘rta asrlar davrida O‘zbekiston hududiMning eng muhim me’moriy obidalaridan biri sifatida Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar tanilgan. Samarqandning Ulug‘bek madrasasi, Buxorodagi Miri Arab, Kalon, Ulug‘bek, Xiva va Shahrisabzdagi maqbara va madrasalar me’moriy bezaklarida bo‘yoqlar, ayniqsa, rangli qoshinlardan mozai mayolika bezaklari, naqshinkor bezaklar va vitrajlar keng qo‘llanilgan. O‘rta asrlar bo‘yoqlari, asosan, tabiiy pigmentlar yordamida tayyorlanib, me’moriy obidalarni bezashda ishlatilgan. Samarqandda qurilgan me’moriy obidalar, xususan, Registon maydoni, Shohi Zinda, Ulug‘bek madrasasi, Bibi-Xonim majmuasi kabi yodgorliklar, o‘zining betakror bezaklari, rang-barang mozaikalar, kundal bezaklari va naqshinkor bezaklari bilan mashhur. Bu yodgorliklar bezaklarida tabiiy pigmentlar, rangli g‘ishtlar, mozaikalar, kundal va boshqa materiallar qo‘llanilib, diniy va madaniy ma’nolarni aks ettirgan. Samarqanddagagi me’moriy yodgorliklarda eng ko‘p qo‘llanilgan bezak elementlaridan biri-mozaikalar bo‘lib, ular nafaqat binoning tashqi ko‘rinishni mahobatligilagini, go‘zalligini, balki ustalarning badiiy didini, yuksak mahoratini, ranglarni nozik xis qilisini ham aks ettirishgan. Registon maydonidagi madrasalar, xususan, Ulug‘bek madrasasining tashqi devorlarida mozaika va ichki bezaklarida essa kundal va oq zaminda lojuvard rangdagi devoriy naqqoshlik uslubidagi bezaklar keng qo‘llanilgan. Bezakalar ko‘pincha geometrik naqshlar (girih), osimlik (islimiyl) va uslublashtirilgan osimlik (stilizovanno-rastitelniy) bezak turlarida bezatilgan. Shuningdek o‘sha

davrda “kundal” bezak turlari qo’llanilgan. Bu naqshinkor bezzaklar, odatda, ko‘k (lazurit) va tillo ranglarda zar varaqlar (susalnoe zoloto) ishlatilgan.

Munozaralar. XVII-XVIII asrlarda O‘rta Osiyo hududida bo‘lib o‘tayotgan murakkab tarixiy jarayonlar, mustaqil – Buxoro, Xiva, Qo‘qon xonliklarining paydo bo‘lishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida badiiy-me’moriy mahalliy maktablarining shakllanishiga omil bo‘lib, bunda ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga, qirralarga ega bo‘lib, har biri uchun maxsus qurilish usullari va o‘zining badiiy an’analari xos.

O‘rta asrlarda O‘rta Osiyo usta me’morlarining binolar ichki (interyer) va tashqi (exteryer) estetik bezalishida foydalangan bezaklari (kulolchilik, mayolika, mozaika va kundal va boshq.)ning tarkibi va xususiyatlarini 10 ta tamoyil asosida ajratishimiz mumkin.

1. Materiallarning chidamliligi tamoyili. Tashqi bezaklarda ob-havo sharoitlariga chidamli kulolchilik va mayolika ishlatiladi.

2. Estetik farqlanish tamoyili. Ichki bezaklar uchun yanada nozik, rang-barang va murakkab naqshli materiallar tanlanadi.

3. Funktsional moslashuv tamoyili. Har bir qismning funksiyasiga qarab (namlik, yorug‘lik, harorat) materiallar tanlanadi.

4. Texnologik imkoniyatlarga moslashish tamoyili. Ichki va tashqi bezaklar uchun maxsus ishlab chiqarilgan turli kulolchilik turlari qo’llanadi.

5. San’at va madaniyatga hurmat tamoyili. Diniy yozuvlar va naqshlarda an’anaviy uslub va usullarni saqlash.

6. Ranglarning psixologiyasi tamoyili. Ichki makonda iliqlik va samimiylilik, tashqarida esa bardavomlik va muqaddaslik ifodalanadi.

7. Geometrik va o‘ymakorlik muvozanati tamoyili. Har bir qismda naqshlarning mos va uyg‘un joylashuvi ta’minlanadi.

8. Ijtimoiy va siyosiy ma’nolar tamoyili. Bezaklarda hukmdor va davlat mavqeい aks etadigan ramz va yozuvlar joylashtiriladi.

9. Texnik barqarorlik tamoyili. Har xil kulolchilik va mayolika birikmasi devor va konstruktsiyalarni mustahkamlaydi.

10. Mahalliy xom ashyo va an’analarni qo’llash tamoyili. Mahalliy ishlab chiqarilgan materiallar va an’anaviy texnologiyalar ustuvorlikda bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘rta asrlarga kelib, O‘rta Osiyo hududida me’moriy yodgorliklar o‘z vazifasidan kelib chiqib, hududiy, davriy nuqtai nazaridan, bezaklardagi har bir qo’llanilgan ranglar va ashyolar o‘ davrining badiiy hususiyatlarini, o‘ziga hosligini belgilab beradi. O’sha davrlarda ishlatilgan, tabiiy o’simlik va fshyolardan tayorlangan ranglar jilosi o‘zgacha jozibadorligi bilan hanuzgacha insoniyatni lol qoldirmoqda. Ushbu sariq-jigarrang. Ro’r, moviy, yashil, lojuvard, firuza ranglar uyg‘unligi ilk o‘rta asrlarning asosiy rang palitrasini tashkil qilgan. Har bir me’moriy obidalarda qollanilgan ranglar ham badiiy, ham ifodaviy jihatdan chuqr o‘ylanib bajarilgan. Feruza rangli sirlangan koshinli gumbazlar, jazirama issiq iqlimda qu‘yosh aksi tushib, uzoq masofadan ko‘rinib, mayoq sifatida aholi yashash manzilini belgilab bergen. Mahobatli me’morchilikda qollanilgan bo‘yoqlar va ranglar mantiqan qator omillarga asoslanib (iqlim sharoiti, hudud, joylasuv, ijtimoiy va siyosiy va hk.) bajarilganligi ustolarimizning yuksak mahorati, badiiy didi, hamda tabiiy ashyolarni texnik-texnologik jihatlarni bilisi, ulardan va unumli foydalanishi, mahobatli obidalarning buyukligini, go’zalligini mana shu qo’llanilgan ranglar tufayli ifodalab bergenliklari taxsinga sazovor. Mana shu rang bo‘yoqlar yordamida yaratilgan madaniy merosimiz yurtimizning behisob boyligini tashkil qiladi. Ularni asrab avaylash va kelajak avlodga etkazish oliy burchimizdir.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Perry, R. The Significance of Color in Medieval Architecture. Oxford: Oxford University Press. 2015. 45 p.
2. Smith, J. The Role of Color in Gothic Cathedrals. Paris: Arts et Métiers Press. 2017. 67-69 p.

3. Hill, E. *The Gothic Revival and its Use of Color*. Manchester: Manchester University Press. 2016. 2-5 p.
4. Jansen, A. *Notre-Dame de Paris and the Art of Stained Glass*. Paris: Gallimard. 2017. 10 p.
5. Braun, H. *Stained Glass and Sacred Art in Medieval Cathedrals*. London: Thames & Hudson. 2015. 35 p.
6. Fagan, C. *Medieval Pigments and Their Use in Architecture*. London: Bloomsbury Academic. 2018. 20-25 p.
7. Morton, F. *Gold Leaf in Medieval Religious Iconography*. Oxford: Oxford University Press. 2016.
8. Winters, B. *The Role of Stained Glass in Medieval Architecture*. New York: Norton. 2020.
9. Султанова, Д. Н. Возникновение и взаимосвязь монументальной живописи в традиционной архитектуре Средней Азии / Д. Н. Султанова. Текст: непосредственный // Молодой ученый. 2013.- № 12 (59). - С. 710-719. URL: <https://moluch.ru/archive/59/7976/> (дата обращения: 14.11.2023)
10. M.Q. Ahmedov “O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi” Toshkent 1995. 256 b.
11. B.A.Xo‘jaev, Buxoro va Samarqanddagi me’moriy obidalar, Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2015. 128 b.
12. M.Q. Ahmedov “O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi” Toshkent 1995. 66 b.
13. Пугаченкова Г.А., Ремпель Л.И. «История искусств Узбекистана» изд-ва «Искусство» 1965 г.
14. З.Ш. Досметова “Меъморий ёдгорликлар безагини таъмирлашда лойиҳалаш” “Dimal” нашриёти, Дарслик. Тошкент. 2024. 472 б.